



AMIR HAYDAR HUKUMRONLIK DAVRIDA BUXORO.

Namangan davlat universiteti. Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix Yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o`gli

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +998957707796

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro amirligini qudratli hukumdorlaridan biri amir Haydarning yoshligi, uning mamalakat taxtiga chiqishi, Xiva xonligi bilan urushlari, uning davridagi qo`zg`alonlar, mamlakat miqiyosida o`tkazgan islohotlari va o`limi yorotiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Mang`itlar, amir Shohmurod. Eltuzarxon, Dinnosirbek, Olimxon, Harbiy islohot, Navkariya, qoracherik.*

Buxoro amirligida amir Haydar muhim ishlarni amalga oshirdi. Taxtga kelishidan ko`p o`tmay, Xiva xonligi bilan kurashga kirishgn amir Haydar porloq g`alabaga erishdi. Amir Haydar mamlakatda talim tizmini tartibga solish uchun islohotlar o`tkazdi. Shunday bo`lsada uning hukumronligi davrida Buxoro amirligida bir necha bor qo`zg`alonlar bo`lib o`tdi. Mamalakatni turli beklklari mustaqilik uchun kurashga kirishdi. Shunday og`ir sharoitda hukumronligini 26 yil davom etirdi.

Mang`itlarni uchinchi amiri amir Shohmurodni birinchi farzandi Haydar 1778-yilda Buxoroda dunyoga keldi. Haydarni otasi Shohmurod bu paytda amir emas edi. Haydarni onasi Ashtarxoniy Abulfayzxonning qizi Shamsiya bonu bo`lib, mang`it amirlaridan bo`lgan hukmdorlarga sayid nisbati berilishi amir Haydar davridan boshlandi. Chunki ashtarxoniy hukmdor Nodir Muhammadxonning onasi Mashhadlik saidlar xonodonidan bo`lgan. Nodir



Muhammadni nabirasi Abulfayzxon uning nabirasi Haydarni ham tarixchilar “sayid” rutbasi qo‘shib aytilganlar. Shohmurodni kamtarona hayot kechirganini hamma biladi. Shohmurod farzandlariga shu jumladan Haydarni yoshlikdan ilm olishiga katta e’tibor berdi. Buning natijasida Haydar o‘ta bilimli va hofizi Qur’on bo‘lib yetishdi. Shohmurod taxtga chiqach farzandlarini turli hududlarga hokim etib tayinladi.

Amir Shohmurod vafod etganda o‘g‘illaridan birinchisi amir Haydar Qarshi hokimi, yana biri Dinnosirbek Marv hokimi, uchinchi o‘g‘li Muhammad Husayn Samarqand hokimi edi. Ulardan hech biri otasi vafot etgan paytda Buxoroda emas edilar. Shunday vaziyatda amir Haydarning ikki amakisi – Umarbiy va Fozilbiy xomtamalik va kaltabinlik bilan arkka kirib, hokimiyatni qo‘lga olmoqchi bo‘lgan. Lekin Amir Haydar Buxoroga kelayotganini eshitgach, har ikkisi ham shahardan chiqib Shahrisabzga ketib qolgan. 1800-yil 2-dekabrda, 22 yoshida Qarshi viloyatidan kelib, Buxoro amirligi taxtiga o‘tiradi.

Amir Shohmurod vafotidan keyin Buxoro amirligida o‘zaro kurashlar va ba’zi bekliklarning mustaqillikka intilishi boshlandi. Shu vaziyatda O‘ratepa hokimi Bobobek parvonachi Jizzaxni bosib oldi. Bobobek parvonachi Jizzaxni qo‘lga kiritgandan so‘ng, shahar hokimi, ya’ni amir Haydarning singlisining eri Muhammad Yusufxo‘jani asir oldi. Bu voqeadan xabar topgan Kattaqo‘rg‘on hokimi Muhammad Xo‘ja o‘z o‘g‘li Muhammad Yusufxo‘jani ozod qilish uchun katta qo‘shin bilan Jizzaxga keldi va Bobobek parvonachi qo‘shinlari bilan jang qilib uni besh yuz nafar askari bilan birga asirga olib, Buxoroga jo‘natdi. Shu tariqa, amir Haydarning amirlikni qayta markazlashtirish yo‘lidagi mashaqqatli kurashi boshlandi. U 1803-yilda ayirmachilik kayfiyatini namoyon qilayotgan O‘ratepaga yurish qilib, uni ham Buxoro amirligiga bo‘ysundirdi. Uning hokimi Bekmurodbiy ibn Xudoyorbiy yuzni qatl qilib, yuz va qirq urug‘i vakillarini ko‘chirib, Buxoro va Samarqandga joylashtirdi. O‘ratepa hukumatini esa Mullo Ernazarbiy dodxohga berib. [1. – B 56].



Buxoro va Xiva xonligi o`rtasidagi 1806- yilgi urishni sababi Buxoro savdogarlarini Xiva xonligi hududida qaroqchilar talagch amir Haydar, Xiva xoni Eltuzarxonga maktub yozib, qaroqchilani jazolash va buxorolik savdogarlarni mollarini to`lab berishini aytdi. Eltuzarxon bunga rozi bo`lib qaroqchilarni tutdirib, Buxoro mollarini qaytarib berdi. Amir Haydar bunga ham qoniqmay, Eltuzarxoni qaroqchilarni sherigi deb topdi va yana mol talab qiladi. Xiva xonligini 200 kishilik savogarlari ko`p qimmat baho molar bilan Mashhaddan qaytib Marvdan chiqanlarida Buxoroga tobe turkmanlar ularni talaydilar. Amir Haydar buni oldini olish o`rniga ularni yana talashga targ`ib qilgan.

Bundan tashqari amir Haydarni ukasi Dinnosirbek Eltuzar bilan yaxshi aloqalarni yo`lga qo`yadi. Buning natijasda Haydar ukasini Marv hokimligidan bo`shatdi. Dinnosirbek bundan g`azblanib akasiga bo`ysinmay Eltuzarxon nomiga xutba o`qitdi. Amir Haydar bir necha bor Marvga qo`shin yubordi. Dinnosirbek Eltuzardan madad so`rab uning huzuzriga ketdi. Shu va boshqa sabablar natijasida ikki davlat o`rtasida kurash bo`lib o`tdi.[5.-B 47-48].

Urish Amudaryo bo`yida ham quruqlikda ham daryoda bo`ldi og`ir jagda Buxoro qo`shinlari g`alaba qozondilar. Eltuzarxon mingan kema suvga cho`kib ketishi natijasida o`zi vafot etdi.

Buxoro Xiva urushidan so`ng Buxoro bilan Qo`qon o`rtasida urushlar boshlanib ketdi. Qo`qon xoni Olimxon 1807-1810-yillarda O`ratepaga hujumlar qilib, katta o`ljalarni Qo`qonga olib ketdi. Bunay hujumlar Qo`qon xoni tomonidan Jizzax va Zominga ham uyushtirilib turildi.

Doimiy ravishda olib borilgan urush harakatlari katta xarajatlarni talab etganligi bois, amir Haydar qo`shimcha soliqlar yig`ish haqida farmon berdi. Bu esa mehnatkash aholi ahvolini yanada og`irlashishiga va amir Haydar hamda u olib borayaotgan siyosatga qarshi chiqishlarga olib keldi. Mana shunday qo`zg`alonlar 1821-1825-yillarda Miyonqol, Samarqand va Urgutda bo`lib o`tdi. Amir Haydar bu qo`zg`alonlarni katta qiyinchiklar bilan, qo`zg`alonchilarga katta va`dalar berish



evaziga bostirishga erishdi. Shahrisabz va Marv vohasi uchun ham amir Haydar urushlar olib bordi.

O‘z davrida amir Haydar qo‘shni Afg‘on davlati hukumdori Shujo al-ulk Durraniy bilan do‘stlik aloqalarini o‘rnatgan bo‘lsa-da, Qo‘qon va Xiva davlatlari bilan Buxoro davlati o‘rtasda munosabatlar keskin edi. Shunday sharoitda amir Haydar hatto Turkiya sultoni Mahmud II ga yordam so‘rab murojat etgan va uning itoatiga o‘tishga tayor ekanligini ham ma‘lum qilgan.[2.-B 288-89].

Ashtarxoniylar davrida mamlaktda muntazam qo‘shin yo‘qligi sabab o‘zini tashqi xafdan himoya qila olmasdilar. Mang‘it hukumdorlari o‘zlarini muntazam qo‘shinini tuzushga urunganlar. Jumladan XIX asr oshlarida amir Haydar harbiy qismlarni ikki b‘limga bo‘ldi. Bular munazam qo‘shin “navkariya” va nomuntazam “qoracherik”. Buxoro amirining “lashkar” “cherik” “qo‘shin” deb nomlangan harbiy kuchlarnig nomuntazam qismi (“qora cherik”) oliy hukumdorni amiriga binoan harbiy harakat davomida tinch aholidan to‘plangan. Amirni jarchilari boshlangan harbiy yurishlar haqidagi xabarlarini bozorda e‘lin qilganlar. Harbiy harakatlar davomida, shuningdek amirlikdagi harbiy qal‘alarni himoya qilishda “qoracherikdan unimli foydalanganlar.[3.-B 126]

Amir Haydar davrida Rossiya bilan bir becha bor elchilar almashunuvi bo‘lib o‘tdi. Jumladan 1809-yilda Rossiyadan Buxoroga maxfiy suratda Odilnosir Subhonqulov Orenburg harbiy gubernatori nazorati ostida yuboriladi. Subhonqulov Rossiya–Buxoro o‘rtasidagi karvon yo‘llaridagi xavfsizlikni ta‘minlash, karvon yo‘llaridagi jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadida kelgan edi. Shuningdek, u Buxoroda qo‘lga olingan 3 rus asirini ham ozod etishga muvaffaq bo‘lgan. 1814- va 1818-yillarda Rossiyaga Azimjom Mo‘minjonov boshchiligidagi ikki rasmiy elchilik yuboriladi. Bevosita Azimjon devonbegi boshchiligidagi birinchi elchilikka Buxoro–Rossiya munosabatlarini mustahkamlash; ikkinchi elchilikka Turkiyaga Rossiya hududlari (Astraxan) orqali o‘tishga ijozat olish masalasini hal etish yuklangan edi.[1.-B 77]



Amir Haydar mamlakatda ta'limtizmda katta o'zgarishlar amalga oshirdi. O'zi ham madrasalarda 400-500 ta talabalarga maruzalar o'qigan. Qroat va xatotlikda ham mohir bo'lgan. Turkiyadan talabalar uchun kitoblar keltirishiga astoydil kirishib bu ishni udalaydi.

Amir Haydarni hokimiyati 1820-1821-yillardan zaiflasha boshlagan edi. Chunki, unga qarashli barcha o'lkalar yopasiga amalga oshayotgan ommaviy tartibsizliklar girdobiga tushgandi. Bu fitnalarni chiqaruchilari xitoy-qipchoq jamosi bo'lgan. Amir Haydar Qarshida hokim bo'lgan ikkinchi o'g'li Nasurullohxoni oldiga uning ishlarini ko'zdan kechirgani bordi va o'sha yerda kasal bo'ldi va Buxoroga qaytib keldi. Buxoroga kelgach kasaligi borgan sari og'irlashib boshladi. Tabiblar davolashga urinishsada foyda bermadi. 1826-yilda vafot etdi. U 48 yil umur ko'rdi shundan 28 yilini ukumronlika bag'ishladi. Uning o'limidan so'ng birin ketin ikki o'g'li taxtga chiqdi, ammo uzoq boshqara olmadi. Yanabir o'g'li Nasurullohxon taxtga chiqandan keyin uzoq vaqt Buxoroni boshqardi.[4.-B70]

Xulisa qilib aytganda amir Haydarni hukumronlik yillari Buxoro amirligi tarixida muhim ahamyat kasb etadi. Jumladan u o'ziga qarshi ko'tarilgan ko'plab qo'zg'alonlarni bostira oldi. Xiva va Qo'qon hujumlarini qaytardi. Mamlakatdagi ko'plab harbiy harakatlarni yaxshilash uchun harbiy islohot o'tkazdi, ta'lim islohoti o'tkazdi. Shunday bo'lsada ko'plab xarajatlarni qoplash uchun axoliga og'ir soliq va majburiyatlarni yuklashi natijasiga unga qarshilar ko'payib borgan. Birgina ukasi Dinnosirbek bilan aloqalarini misol qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. Zamonov, A. Egamberdiyev. *Buxoro amirligi tarixi- Toshkent: tamaddum nashiryoti* 2022. 182 b.
2. Б.Эшов, *Узбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи – Тошкент узбекистон тарихи кафедраси.* 2012. 456 b.



3. Д.Х. Зияева. Узбекистонда харбий иш тарихидан. Тошкент. “SHARQ” Акциядорлик компанияси бош тахрияти. 2012. 280б.
4. Муҳаммадхакимхон тўра Мунтахаб ат-таворих- Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. 716-б.
5. К. Худойберганов. Хива хонлари шажараси. Хива 1996. 73б.